



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 28-mart, seshanba,
37 (23.758)-son

**KUN
HIKMATI**

Nuqtai nazar
yoki munosabat
fikrlash hamda uni
to'g'ri ifodalashni
o'zlashtirishdan
shakllanadi

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://

ook.com/zarnews.uz



/twitter.com/zarnews_uz



Okrug komissiyasi a'zolarining vazifalari belgilab olindi

Kecha Samarqand shahrida O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazuvchi 7-Samarqand okrug komissiyasining birinchi yig'ilishi o'tkazildi. Yig'ilishni okrug komissiyasi raisi Farmon Toshev boshqardi.

Oliy Majlis palatalarining qarorlariga ko'ra, joriy yilning 30-aprel kuni mamlakatimizda "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazildi.

Markaziy saylov komissiyasining 2023-yil 16-martdagi qarori bilan referendumni o'tkazish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri chegarasi doirasida 14 ta referendum okrugi tuzildi.

Jumladan, Samarqand viloyati bo'yicha 7-Samarqand okrugi tuzilib, xalq deputatlari viloyat Kengashining tavsiyasi asosida Markaziy saylov komissiyasi tomonidan 2023-yil 23-mart kuni 21 kishidan iborat tarkibda okrug komissiyasi tasdiqlandi.

Yig'ilishda komissiya a'zolariga guvohnomalar topshirildi.



"O'zbekiston Respublikasi Referendumi to'g'risida"gi Qonun hamda Markaziy saylov komissiyasining tegishli qaroriga asosan referendumni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha okrug komissiyasining ish rejasi, komissiya a'zolarining vazifalar taqsimoti tasdiqlandi.

Shuningdek, to'rt kishidan iborat tarkibda 7-Samarqand okrug komissiyasi matbuot markazi tashkil etildi.

Yig'ilishda Markaziy saylov komissiyasi tomonidan shu yilning 24-25-mart kunlari Toshkent shahrida okrug komissiyalari rahbarlari uchun o'tkazilgan o'quv-seminar tafsilotlari haqida komissiya a'zolariga ma'lumot berildi.

Narvabohor

JAHON CHEMPIONATNING BRONZA MEDALI SOHIBI

Hindiston poytaxti Nyu-Dehli shahrida ayollar o'rtasida o'tkazilgan boks bo'yicha jahon chempionatining -66 kilogramm vazn toifasida yurtimiz sharafini himoya qilgan samarqandlik bokschi Narvabohor Hamidova bronza medalini qo'lga kiritdi.

U musobaqaning chorak finalida jazoirlik Imane Xelifga imkoniyatni boy bergan edi. Keyinchalik jazoirlik bokschi diskvalifikatsiya qilindi va uning o'rniga Narvabohor yarim finalchi sifatida qayd etildi.



Kun fidoyisi

Munosabat

Ta'lim olish kafolati oshadi

April oyining oxirgi yakshanbasida Bosh qomusimizga kiritilgan o'zgartishlar bo'yicha umumxalq ovozi beriladi. Shu munosabat bilan joylarda bu borada keng bahs-munozaralar avj olgan. Sohada ishlaydigan kishi, shu jumladan, o'qituvchi sifatida Asosiy qonunimizda ta'lim olish kafolati kengaytirilgani va o'qituvchi maqomi alohida belgilanganini olqishlayman.

O'QISH-O'RGANISHGA KAFOLAT QAY TARIQA KENGAYMOQDA?

Qayd qilinganidek, Konstitutsiyamizda fuqarolarning ta'lim olishlari bilan bog'liq huquqlari kengaytirilyapti. Aniqrog'i, Konstitutsiyaviy qonun loyihasiga ko'ra, Bosh qomusimiz 50-moddada bilan to'ldirilmoqda.

Xususan, yangi Konstitutsiyaviy qonun loyihasiga ko'ra,

"Har kim ta'lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi.

Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o'rta ta'lim majburiydir.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidadir.

Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi."

Ta'kidlash lozim, amaldagi Konstitutsiyaning 41-moddasida "Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul

umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir", deyilgan.

Nega aynan o'qituvchi maqomi oshirilyapti?

Boshqa kasb bunday e'tiborga loyiq emasmi, degan tabiiy savol tug'lishi mumkin. Mutaxassislariga ko'ra, bu borada xalqaro tajriba e'tiborga olinmoqda. Chunki Yaponiya, Xitoy kabi Osiyo davlatlaridagi iqtisodiy mo'jiza ta'lim islohoti bilan bog'liq. Koreya va Singapur o'tgan asrning 60-yillarida qoloq mamlakatlar bo'lgani holda ta'limga oqilona investitsiya sarflash orqali bugungi kunga kelib ilg'or mamlakatlarga aylandi.

Yashirib nima qildik, shu paytgacha Konstitutsiyada davlat organlari maqomi aks etgandi. Demak, endi har birimiz va farzandlarimizning kelajagi uchun muhim o'rin tutuvchi o'qituvchining maqomi Asosiy qonunimizda mustahkamlanmoqda. Muhimi, yangi norma davlat organlari va boshqa tashkilotlarning maktablar va o'qituvchilar faoliyatiga asossiz aralashuviga, pedagog kadrlarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitilishiga, ularning mehnatga majburlanishiga, ta'lim-tarbiya jarayoniga to'sqinlik qilishiga, o'qituvchilarning huquqlari buzilishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha

kompleks choralar ko'rishga xizmat qiladi.

UNESCOning 1966-yil 5-iyuldagi "O'qituvchilar maqomi to'g'risida"gi tavsiyasining 7-bandida pedagogning erkinlik prinsipi mustahkamlangan. Bu borada yurtimizda amaliy ishlar, tub islohotlar qachondan boshlangani barchaga ma'lum.

Davlatimiz rahbari 2018-yilda xalq ta'limi xodimlarini xizmat vazifalariga bog'liq bo'lmagan ishlarga, majburiy mehnatga, jumladan, obodonlashtirish va ko'klamzorlashtirishga, mavsumiy qishloq xo'jaligi ishlariga va boshqa turdagi ishlarga jalb qilishni taqiqlash to'g'risidagi farmoni imzolagandi. Rost, shu orqali keng jamoatchilik ham o'qituvchilar qadriini ko'tarish ishlariga astoydil bel bog'lagandi.

Yangi konstitutsion norma esa o'qituvchilarning ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishi, o'z kasbiy vazifalarini bajarishi, ularning ijtimoiy maqomi va obro'sini oshirish uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratishi, shuningdek, o'z huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish uchun kafolatlar berishga xizmat qiladi. Shuningdek, yangi tizim o'qituvchilik kasbini nafaqat moliyaviy, balki intellektual jihatdan ham jozibador qilishga asos bo'ladi. Bu esa, o'z o'rnida, o'qituvchilarning mehnatini munosib rag'batlantirish bo'yicha barcha kuch va resurslar, sa'y-harakatlar safarbar etilishini anglatadi.

Ozoda SALIMOVA, Kattaqo'rg'on shahridagi 11-IDUM direktori, shahar Kengashi deputati.

INDALLOSINI AYTGANDA...

Xosiyat RUSTAMOVA, "Kitob dunyosi" gazetasi bosh muharriri:



- Internet aslida yomon narsa emas. U biror bosma nashrning dushmani ham emas. Faqat bizning johilligimiz uni bosma nashrlarga dushman qilib qo'ydi. Internet ham yashnayoqgan, bosma nashrlar ham yashayotgan davlatlar ko'p yer yuzida.

Gazetalar bugun janggohdagi yarador jangchilarga o'xshaydi. Ularning safi kamayib borayotgani - bu fojia.



Bugun havo o'zgaruvchan bo'lib, **yog'ingarchilik bo'lmaydi**. Ayrim tog'oldi va tog'li hududlarda **yomg'ir yog'adi, momoqaldiroq bo'ladi**. Harorat kechasi **7-12 daraja, kunduzi 22-27 daraja** iliq bo'ladi.

29-30-mart kunlari ayrim joylarda **yomg'ir yog'adi**. Shamol tezligi 15-20 metr soniyagacha kuchayadi. Harorat kechasi **9-14 daraja, kunduzi 20-25 daraja** iliq bo'ladi.

31-martda yog'ingarchilik kuzatilmaydi. Samarqand gidrometeorologiya boshqarmasi.

AMALDAGI KONSTITUTSIYADA

15-modda.

O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi.

Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar.

16-modda.

Mazkur Konstitutsiyaning birorta qoidasi O'zbekiston Respublikasi huquq va manfaatlariga zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emas.

Birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
REFERENDUMI
2023

15-modda.

O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalari bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismidir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining qonunida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi qoidalari qo'llaniladi.

Davlat va uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish yuritadilar.

KONSTITUTSIYAVIY QONUN LOYIHASIDA

16-modda.

Ushbu Konstitutsiyaning birorta qoidasi O'zbekiston Respublikasining huquq va manfaatlariga, ushbu Konstitutsiyaning birinchi bo'limida nazarda tutilgan asosiy prinsip va normalarga zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosida va uni ijro etish yuzasidan qabul qilinadi. Birorta qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiyaning prinsip va normalariga zid bo'lishi mumkin emas.

Davlatimiz rahbarining shu yil 20-yanvarda qabul qilingan "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida ichki ishlar organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimini yaratish maqsadida Ichki ishlar vazirligi va uning hududiy bo'linmalarida jamoatchilik asosida doimiy faoliyat yurituvchi maslahat-kengash organi hisoblangan, soha olimlari, faxriylari va jurnalistlardan iborat jamoatchilik kengashlari tuzilishi belgilangan edi.

JAMOATCHILIK KENGASHI:

NAZORAT QILADI, YORDAM BERADI

tushuntiryapmiz.

Hozir ijtimoiy tarmoqlarda ichki ishlar idorlari xodimlarining aholi bilan muomala-munosabati haqida har kuni turli xil fikrlar bildirilyapti. Ayrim noxush holatlarga ham duch kelamiz. Ana shunday paytda kengash a'zolari to'planib, boshqarva rahbariyati bilan birga masalani muhokama qilamiz, zarur chora-tadbirlar ishlab chiqamiz.

Bundan tashqari, keyingi paytda jinoyat va huquqbuzarliklarni mahallalarda, jamoatchilik bilan birga muhokama qilish, jinoyatlarning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini tahlil etish tizimi yo'lga qo'yildi. Ushbu tadbirlarda ham jamoatchilik kengashi a'zolari qatnashib, o'z fikrlarini bildiriyapmiz. Kengash tarkibida tumanimizning ko'zga ko'ringan nuroniy-lari, ichki ishlar idoralari faxriylari, mahallalar faollari, jurnalistlar va ol o'rtasida obro'-e'tiborga ega kishilar bor. Ularning har birining fikri albatta, jamoatchilikni e'tiborsiz qoldirmaydi.

- Umuman, maslahat, murosa yo'li yaxshi-da, hamkorligimiz tufayli hech bir masala yechimsiz qolmaydi. Prezidentimiz qarori bilan ichki ishlar tizimining barcha bo'g'inlarida jamoatchilik kengashlarining tashkil etilishi ichki ishlar organlarini aholining ishonchli himoyachisi sifatida xalqchil professional tuzilmaga aylantirish, ularning fuqarolar, jamoat tashkilotlari hamda keng jamoatchilik bilan yaqin hamkorligini mustahkamlashga xizmat qiladi, - deydi Q.Asqarov.

Qarorda qayd etilganidek, jamoatchilik kengashlariga ichki ishlar organlari faoliyatida qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, soha bo'yicha ijtimoiy fikrni o'rganish va tizimli monitoring olib borish, ichki ishlar organlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish jarayonida ijtimoiy fikr va jamiyat manfaatlarini hisobga olinishini ta'minlash choralari ko'rish, ichki ishlar

organlari faoliyatidagi korrupsiya holatlari bo'yicha internet va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilingan xabarlarni batafsil o'rganish va uning natijasini keng jamoatchilikka yetkazish vazifalari qo'yilgan.

- Jamoatchilik kengashi uchun boshqarmamizda alohida xona ajratilgan, - deydi Urgut tumani ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Damir Sultonov. - Kengash a'zolari tez-tez bu yerda to'planib, biz bilan birga shu kecha-kunduzdagi muhim masalalarni muhokama qilishadi. Shuningdek, har hafta shaxsiy tarkib ishtirokida o'tkaziladigan ma'rifat soatida qatnashib, xodimlarga o'z maslahat va tavsiyalarini aytishadi. Aholi bilan muloqot qilishimiz, joylarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish, kriminogen vaziyat og'ir hududlarda fuqarolar bilan ishlashimizda jamoatchilik bilan hamkorligimiz yaxshi natija bermoqda. Bu raqamlarda ham o'z aksini topmoqda. Garchi, o'tgan yil umumiy jinoyatlar 2021-yilga nisbatan oshgan bo'lsa-da, uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar 13 taga, og'ir jinoyatlar 9 taga kamaydi. Jumladan, qasddan odam o'ldirish 4 taga, qasddan og'ir tan jarohati yetkazish 4 taga, yengil tan jarohati yetkazish 5 taga, yo'l-transport hodisalaridagi o'limgar soni 8 taga, firibgarlik jinoyati 41 taga kamayishiga erishildi.

Tuman IIB mas'ullarining qayd etishicha, uch yil oldin Urgut tumani mamlakat ichki ishlar organlari tizimida "qizil" toifadagi hudud sifatida qayd etilgan bo'lsa, bugunga kelib "yashil" toifaga o'tgan.

G'olib HASANOV.

"REFERENDUM-2023":

BEFARQ EMASMIZ



Shu kunlarda barcha hududlarda "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasi yuzasidan targ'ibot-tushuntirish ishlari hamda aholini referendumda faollikka chorlovchi tadbirlar uyushqoqlik bilan amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari ham faol ishtirok etmoqda.



Past Darg'om tumani hokimligida tashkil etilgan yig'ilishda Qonunchilik palatasi deputati Muzaffara Abdiyeva Konstitutsiyaviy qonun loyihasi mazmun-mohiyati va referendumda fuqarolarning ishtirok etish tartiblarini, uning ahamiyati haqida qatnashchilarga ma'lumotlar berdi. Qayd etilgidek, yurtimizda davom etayotgan siyosiy jarayonda har bir fuqaroning o'z fikr-mulohazasi, taklifini bildirishi uchun barcha qulayliklar yaratilgan. Yangilanayotgan Konstitutsiyamizni takomillashtirishda ham xalqimiz o'z orzu-istaklarini, takliflarini amin-erkin taqdim etdilar. - Konstitutsiya loyihasi ikki bosqichda tayyorlangani, uni shakllantirishda 220 mingdan ortiq takliflar tushgani va takliflarning har to'rttasidan biri inobatga olingani Bosh qonunimiz tom ma'noda xalq Konstitutsiyasiga aylanayotganidan darak beradi, - dedi deputat. - Xususan, bugungi kunda tayyorlangan Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bilan amaldagi Konstitutsiyamizning moddalar 128 tadan 155 taga, uning normalari esa 275 tadan 434 taga ko'paymoqda. Ya'ni, Konstitutsiyamiz qariyb 65 foizga yangilanmoqda. Amaldagi 128 ta moddadan 91 tasiga konseptual o'zgartirishlar kiritilmoqda. Konstitutsiyamizning birinchi moddasidayoq O'zbekiston ijtimoiy davlat, deb e'lon qilinmoqda. Davlatning ijtimoiy majburiyatlariga oid normalar qariyb uch baravarga ortmoqda. Xususan, unda har kimning uy-joyli bo'lish huquqi belgilanmoqda. Ushbu norma-ni amal qilishi har bir fuqaro, jumladan, yosh oilalarning o'z turarjoyiga ega bo'lishini ta'minlaydi, odamlarning hayotdan rozilik darajasini oshiradi. Yig'ilishda mahallalar faollari, xotin-qizlar va yoshlar yangilanayotgan Konstitutsiya hamda referendum yuzasidan o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldi.

Samarqand davlat universiteti faollari zalida o'tkazilgan navbatdagi tadbirida parlament quyi palatasi deputati Yelena Kompolshik aprel oyining 30-sanasi o'tkaziladigan siyosiy tadbirida fuqarolar ishtirokining ahamiyatiga to'xtaldi.

- Referendumga "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasi qo'yilyapti, - deydi deputat. - Demak, referendum byulletenida "Siz "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasini qabul qilasizmi", degan savol qo'yiladi.

Savol bu tarzda qo'yilishiga sabab, qonunchiligimizdagi tartiblarga ko'ra, avvalo, parlamentning o'zi Konstitutsiyani ham, qonunlarni ham qabul qilish vakolatiga ega. Bundan tashqari, umumxalq ovozi, ya'ni referendum orqali ham qonunlarni qabul qilish mumkin. Shuning uchun "qabul qilasizmi", degan savol qo'yiladi.

Ovoz beruvchi xohish-irodasining variantlari "ha", "yo'q", "rozi" yoki "qarshi" deb ko'rsatiladi. Konstitutsiyaviy qonun loyihasi yuzasidan o'tkaziladigan referendumda fuqarolarimiz "ha" javobini belgilaydigan bo'lsa va bu 50 foizdan ortiq ovozni tashkil etsa, loyiha qabul qilinadi. Bu bilan mamlakatimizning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi amalga kiritiladi.

Samarqand shahridagi pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazida ham shunday targ'ibot tadbiri o'tkazildi.

Unda viloyatdagi umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktablar o'qituvchilari hamda soha mutaxassislari ishtirok etdi. - Yaqin yillargacha o'qituvchilar majburiy mehnatga jalb qilinadi, ta'lim jarayonlari qolib, hisobotlar tayyorlashga, turli qog'ozbozliklarga ko'mib tashlangandi, - deydi toyloqlik o'qituvchi Yulduz Abdurrahmonova. - Yangilanayotgan Konstitutsiyada esa o'qituvchining maqomini oshirish, haq-huquqlarini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilayotgani kasbga bo'lgan mehmurini yanada oshiradi.

Mulohaza uchun mavzu

Tadbirkor bo'lish uchun xohishning o'zi yetarli mi?

Ko'p yildan buyon ko'rishmagan tanishimni uchratib qoldim. Suhbat davomida gap aylanib ish va pul topish masalasiga kelib taqaladi.

- Biznesmen bo'lmoqchi-man, tadbirkorlik qilaman, - dedi u. - Hozir tadbirkorlarga katta yordam berilyapti, imtiyozli kredit, soliqdan yengillik, mahsulotning chetga sotilgan, yana pulning bir qismini qaytarib berishadi. Xullas, hamma pul tadbirkorlikda bo'lib qoldi. Sotuvchi yoki ishlab chiqaruvchi bo'lishini aniq bilmaydigan tanishim bozorda qanday mahsulot xaridor-gir bo'lsa, o'sha mahsulotni ishlab chiqaradigan uskuna olib kelmoqchi ekan.

- Bankdan kredit olib xaridor uskuna olib kelmoqchi edim, ishim o'ngidan kelib, bir joydan judayam arzoniga shunday uskuna chiqib qoldi, - so'zida davom etdi. - Ishchi yollashda ham qiyinchilik bo'lmadi. Shunday qilib, tez orada korxonani ishga tushirish harakatidaman.

Yengil hayotga o'rganib qolgan tanishim binoyidek ishlarni ham turli sabablar bilan tashlab ketgandi. Ota-onasi uni o'qitguncha ko'p qiyinlanini bilaman. Zora aqil kirgani rost bo'lib, tadbirkorlikda omadi kelib qolsa, deb qo'ydim.

Yurtimizdagi qulay ishbi-larmonlik muhiti va tadbirkorlik sub'yektlariga berilayotgan imtiyozlar tufayli soha rivojiga hissa qo'shmoqchi bo'lgan ko'plab xususiy sektor vakillari o'z biznesini yo'lga qo'ygan rost. Tanishim ham shunday imtiyozlar tufayli korxonani ishga tushirib, ishlari tezda yurishib qoldi.

Bir necha oydan keyin ishxonasida ko'rishganimizda uning ko'rinishi bir ahvolda edi. Korxonasini o'g'ri urgandek, ishlab chiqarish va qadoqlash bo'limlari besaranjom, tartibsiz, oddiyroq aytganda, oyoq bosishga joy yo'q. Ish haqlarini vaqtida o'lmagan xodimlar ishdan ketib qolgan. Korxonaning elektr energiyasi, soliqlardan qarzdorligi ortib ketgach, yopilgan.

- Mashina va boshqa mulklarimni kredit olayot-

ganimda garovga qo'ygan-dim, hozir to'lashga hech vaqo qolmadi, - deydi u. Suhbat jarayonida bildim-ki, dastavval u arzonligini o'ylab elektr energiyasini ko'p iste'mol qiladigan eski uskunani xarid qilgan. Bozorni, talabni o'rganmagan. Mahsuloti raqobatbardoshli-gini ta'minlamagan. Xom-ashyo sifatli bo'lishi bilan birga uni tayyor mahsulotga aylantirishning kamxarj yo'llarini topmagan. Mahsulotni mijozlarga zamonaviy dizayn-da taqdim etishni bilmagani yetmagandek, chiqarayotgan tovar marketingini ham yo'lga qo'ygan. Dastlabki uch oydag talabning ko'pligini xaridorlarning yangi tovarga nisbatan sinovi ekanini tushunmagan ham. Achinarlisi, ishchilarning mehnat haqlari to'lanmasdan qolib ketgan.

Ma'lumotlarga qaraganda, bir kishining ish bilan bandligi 5,5 kishining ehtiyo-jini ta'minlar ekan. Tanishim aytganidek korxonasida mehnat qilgan 30 ga yaqin kishi hozirda ishsiz qolgani-ni hisobga olsak, ularning o'rtacha 160 nafardan ortiq oila a'zosi iste'molga kerakli mahsulotlarni xarid qilol-masdan qoldi, deganidir.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanmoqchi bo'lganlar-ga yurtimizda haqiqatan ham keng imkoniyatlar yaratilgan. Biroq bu shunchaki tadbir-kor bo'lish istagidagi korxon-a ochsa, hammasi o'z-o'zidan bo'laveradi degani emas! Korxonaga faoliyatini to'xtat-sa, unda mehnat qilayotgan ishchilar yangi ish topishga yana qancha vaqt sarflaydi, odamlarda ularga nisbatan ishonchsizlik paydo bo'lmay-di, degan savollarga oldindan javob bo'lishi kerak. Tadbirkor har bir kishi bildir-gan ishonchini oqlab, uning shartlarini puxta o'rganishi, talabga yarasha mahsulot taqdim qilishi, buning uchun tanlagan sohasining bilimdo-ni bo'lmog'i lozim.

O'ktam XUDOYBERDIYEV.



Juma BOZORINI KIM TARTIBGA OLADI?

Xalqimizda "Elining yashash tarzini bilmoqchi bo'lsang, bozorini borib ko'r", degan naql bor. Bozorlarimiz savdo-sotiq markazigina bo'lib qolmay, balki xalqning turmushi, farovonligi va madaniyatini ham ifodalovchi jamoatchilik maskani hisoblanadi.

Past Darg'om tumanidagi Juma dehqon bozorida mol bozori, meva-sabzavot va keyim-kechak bozorlari yonma-yon joylashgan. Biroq qay biriga kirsangiz ham na-faqat xaridorlar, balki bozorchilar-ni ham noqulay sharoitlarda sav-do qilayotganiga ko'zingiz tushadi. Mol bozoriga borishni istasangiz (ayniqsa, shanba kuni) mashin-larning tirbandligidan qiynalib o'tishingiz kerak. Abgor yo'ldagi chuqur ko'imaklardan traktor yoki yuk mashinalar harakatlanmasa, yengil mashinalar beshkast o'tolmaydi. Kamiga, tirbandlikka qo'shimcha, qop ko'targan yuzlab piyodalarning yo'lining o'rtasidan bemalol kesib o'tishlari sizni ikki

karra ehtiyot bo'lishga undaydi. Hech qanaqa yo'li belgilari yoki piyodalar yo'laklari haqida gap bo'lishi mumkin emas. Yo'lining bir tarafini arpa, bug'doy, qoziq, ketmonu o'roq sotuvchilar egallag-an bo'lsa, ikkinchi tomonda yerga to'shalgan gilamlar, yuk tashuvchi motosikllar va ko'chma vetaptekalar joylashib olgan. Avtomobil-lar qo'yadigan maydonchani kichikligidan mashina qo'yishga joy topolmaydiz.

Piyodalar uchun yo'lak yo'qligidan hamma joyni "po'sht-po'sht" deb baqirayotgan ara-vakashlar bosib ketgan. Sal sergak bo'lmasangiz, o'zingizni turtib, oyog'ingizni bosib ketishdan toymaydi. Mana shu tig'iz tirband-likdan zo'rg'a o'tib mol bozorga kirib olasiz. Bozor ichida yoritish vositalari kamligi sabab, deyarli nimqorong'i joylardan o'tishingizga to'g'ri keladi. Kimdir qo'y-echki, yana kimdir mol ushlab mijoz kutadi. Mol bozoriga tosh yoki asfalt qilinmaganligi sabab yoqqan yomg'irdan yer loy bo'lib, shiltasi chiqib ketadi. Balchiqni ko'rib etik kiyib kelmaganingizga afsus qilasiz. Meva-sabzavot bozorida ham

Bugunning gapi

shunday manzarani ko'rish mumkin. Bozorga kirishda yo'l yoqasidagi do'konlar yoniga har kim xohlagan holatda mashinasini qo'yib ketaveradi. Oqibatda yo'lga tirbandlik paydo bo'ladi. Ayniqsa, yakshanba kuni kelib qolsangiz bormi, qaytib chiqquncha rosa xunob bo'lishingiz tayin. Bozor avtostoyankasi ham o'ziga yara-sha abgor ahvolda. Ilgari hududi katta bo'lgan mazkur avtoturargoh ham yildan-yilga kichrayib bor-moqda. Ikki tomondan oynavand savdo do'konlari qurilishi evaziga ariqlar yopilib qolgan. Yomg'ir, qor suvi yo'lining o'rtasiga to'planadi. Xaridorlar uchun bu ko'imaklardan kechib o'tish azob. Buyum bozori yonidagi avtoturargoh ham asfalt qilinmagan, o'ydim-chuqur. Bir yog'ingarchilik bo'lsa, o'tib bo'lmay qoladi.

Xo'sh, aslida bozor kim uchun qurilgan? Albatta, aholi uchun deiyshingiz tabiiy. Bozor nega ular uchun yetarli shart-sharoit yaratilmagan? Nega mashinangiz uchun 5 ming so'm to'laysiz-u, uni qo'yishga joy qilib qo'yilmagan? Bu holatlar faqat bozorlarning kirish yo'li va avtoturargohlarida ko'rgan-larim. Bozordagi antisaniyariya holatlari, do'konlar va rastalarning ahvoli haqida gapirmay qo'yaqolay. Bu boshqa mavzu.

Asta-sekin turmush sharoitimiz ham yaxshilanib, hayotimiz farovonlashib bormoqda. Bozirimiz ham shunga mos bo'lsa, yaxshi bo'lardi. Buning uchun hudud obodligiga mas'ul tuman mutasaddilari diqqat-e'tiborini ushbu mas-kanga qaratganida, hozirda ana shunday salbiy manzara yuzaga kelmagan bo'larmidi?

Shuhrat NORMURODOV, Past Darg'om tumani.

Inson huquqlari sohasida milliy ta'lim dasturi

Shu yil 7-fevralda Prezidenting "O'zbekiston Respublikasida Inson huquqlari sohasidagi milliy ta'lim dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Dasturga asosan, 2023/2024-o'quv yilidan boshlab professional va oliy ta'lim tizimida "Inson huquqlari", "Ayollar huquqlari", "Bola huquqlari" bo'yicha o'quv va maxsus kurslar joriy etiladi. 2023-yil 1-iyungacha qadar yuqorida ko'rsatilgan kurslar joriy etiladigan professional va oliy ta'lim tashkilotlarining aniq ro'yxati shakllantiriladi. 2023-yil 1-iyundan boshlab har yili "Inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi ta'lim va innovatsiyalar" milliy tanlovi o'tkazib boriladi. Shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslar, ayollar, bolalar va migrantlar huquqlari yo'nalishlarida faoliyati mazkur shaxslar bilan bevosita bog'liq bo'lgan tashkilotlarda o'quv kurslari va seminar-treninglar tashkillashtiriladi.



2023-yil 1-aprelga qadar turkum qo'llanma va risolalarni tayyorlash va chop etish choralari ko'rish hamda Inson huquqlari sohasida ta'lim olish bo'yicha elektron platformani ishga tushirish belgilandi.

2023-yil 1-martdan boshlab tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergovni amalga oshiruvchi organ va jazoni ijro etish muassasalari xodimlari uchun qiyinroqqa solishga qarshi kurashish bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslari doimiy ravishda tashkil etiladi.

Viloyat adliya boshqarmasi axborot xizmati.

BUXORONI AZON OVOZI UYG'OTADI

Buxoro minoralar shahri, avliyo-pirlar makoni. Buxoroda ko'ngingiz orom topadi, o'zgacha sokinlikni his qilasiz. "Zarafshon" va "Самаркандский вестник" gazetalarini birlashgan tahririyati xodimlari Buxoro sharifiga sayohat qilgan ekan, bu yerdagi ziyoratgohlar, tarixiy obidalar, zamonaviy shaharni tomosha qildi, odamlar bilan suhbatlashdi. Maqolamiz safar taassurotlari haqida.



...Tongni Buxoroning qaysi manzilida bo'lmang azon ovozi bilan qarshi olasiz. Shu sanning o'zi kishining ruhiyatini poklaganday, tiyatigacha nur yog'ildanday tasavvur uyg'otadi. Ko'zlab kelgan manzillaringiz sari yo'lga o'tlanasiz. Bu safar sayohatda ko'zlagan qadamjolarimiz Buxoroning Qubbat-ul Islom nomini olishiga asos bo'lgan piru avliyolar makon topgan maskanlarni ziyorat qilish edi. Ha, mazkur muqaddas shahardagi dong'i butun dunyoga ketgan madrasalar tufayli turli yillarda tariqat yo'llarini mukammal bosib o'tgan pirlar yashagan, atrofiga yuzlab shunday shogirdlar to'plagan ulamolalar makon topgan.

Maqolada yetti pir — Abduxolij G'ijduvoni, Muhammad Orif Revgariy, Mahmud Anjir Fag'naviy, Xoja Ali Romitaniy, Muhammad Boboyi Samosiy, Sayyid Amir Kulol va Bahouddin Naqshband me'moriy majmualarining barchasi haqida alohida so'zlab berishning imkoniyati yo'q. Binobarin, bu haqda o'quvchi bugun cheksiz imkoniyatlariga ega internet makonlaridan ham to'la ma'lumot olishi mumkin.

KO'ZLARIGA TUZ SEPIB ILM O'RGANGAN PIR

Mazkur muqaddas maskanlarda e'tiborimizni tortgan jihatlar haqida so'z yuritmoqchimiz. Avvalo har bir maskandagi tozalik, odamlarning xush kayfiyati kishiga o'zgacha zavq bag'ishlaydi. Shuningdek, ushbu ziyoratgohlar hududining qariyb har birida bog' tashkil etilgani, hozir bu bog'larning gullab, hududning husniga husn qo'shib turganini ta'rifi flashgacha til o'ziz.

Aytishlaricha, pirlarimiz diniy ilmlar bilan shug'ullanish barobarida u yoki bu hunarmandchilik orqali ro'zg'orini yuritgan. Xojagon tariqatining asoschisi Xo'ja Abduxolij G'ijduvoni bo'z to'qigan bo'lsa, Xoja Ali Romitaniy to'quvchilik bilan mashg'ul bo'lgan, Sayyid Amir Kulol kulolchilik bilan ro'zg'or tebratgan, uxlamaslik uchun ko'zlariga tuz sepi bo'lsa-da, ilm o'rgangan Orif Revgariy kabi pirlarning barchasi oddiylik, kamtarlikda ibrat bo'lishgan.

Barcha ziyoratgohlarda o'ziga xoslik bilan bir qatorda o'xshashliklar ham talaygina: minoralar, bog', hovuz nafaqat ushbu maskonlar, balki Buxoroning boshqa tarixiy maskanlariga ham xosdir. Ayniqsa, yetti pir ziyoratgohlarining qaysi biriga kirsangiz, o'sha joy haqidagi ma'lumotlar, pirlarning bosib o'tgan yo'llari, ziyorat odoblari, islom arkonlari haqida radiokarnay orqali o'qilishi juda foydali.

Romitan tumanida joylashgan Boboyi Samosiy ziyoratgohiga kirishda anor sotilayotganiga guvoh bo'ldik. Bilishimizcha, mazkur tuman anorlari bilan mashhur.

- Esimni taniganimdan beri anor ekamiz, uni yetishtirishning hadisini olganmiz, - deydi Boboyi Samosiy mahallasida yashovchi Dilfuza Fatxullayeva. - 30 sotix yerdagi 140 tup anor daraxtimizdan har yili yetti tonnagacha hosil olamiz. Shuningdek, asalarichiligimiz ham bor. O'laviy ishlaymiz, asosiy daromadimiz shundan.

Qishdan omon chiqqan anorlarning narxini so'rasak, 10 ming so'm deb aytishdi. To'g'risi, hayron qoldik. "Mehnatni osonmasdir, ayniqsa hozir, hamma mevalar uzilgan payti buncha arzon sotayapsizlar?" degan savolimizga opaxon jilmayib javob berdi: "Barakasini bersin, axir pirlar makon tutgan joyda savdo qilamiz! Mehnatni osonmas, albatta. Chunki bu oylar-gacha anorni saqlash uchun uni uzilishidan tortib, tashish, saqlash - hammasi o'ta hushyorlikni talab etadi. O'zgina lat yesa, ichidagi bitta donachasi chirisa tamom, boshqalariga ham o'tadi".

"BARAKASINI BERSIN..."

Darvoqe, "topganimizni barakasini bersin, narxni ko'tar-sag-u, ammo topgan pulingning barakasi bo'lmasa qiyin" deyidiganlar ko'p ekan. Buni ziyoratlardan so'ng tungi Buxoroni aylanganda, taksi xizmatlaridan foydalanganam bildik. To'rt kishini anchagina olis masofaga olib borish uchun haydovchi "O'n ming so'm bo'ladi, desa, bir-birimizga qarab qo'ydik. Adashmadikmi, deya mashinaga o'tirgach, qayta so'radik.

- Mehmonga o'xshayapsizlar, nazarimda, - deya haydovchi suhbatga kirishib ketdi. - Ha, bizda taksi xizmatlarining narxi shunday. Kunning qaysi payti bo'lshidan qat'i nazar, narxni o'zgartirmaymiz. Barakasini bersin. Bilaman, sizlarda servis narxlarini qimmat. Ishonasizmi, hatto o'zimizning ukam ham mashinasini taksi sifatida haydab, aynan Samarqandga borib ishlaydi.

Haqiqatan ham bir necha buxoroliklar bilan gaplasharkan-miz, ularning kamtarligi e'tiborimizni tortdi. Ayniqsa, tuman hududlarida uylarning bir xil balandlikda qurilgani, oddiygina ta'mirlangan ularning o'tmishdoshlari singari hashamga juda zo'r bermaganini ko'rsatib turibdi.

QURILISH KO'P, DARAXT KAM...

Zamonaviy Buxoro ko'chalari barcha hududlarda bo'lgani kabi qurilishlar juda ko'p. Bu holatning quvonarli to-moni bilan birga tashvishli jihatlari ham bor. Katta ko'chalar-daku, oz bo'lsa-da, daraxtlar ekilganiga guvoh bo'ldik. Ammo ba'zi ichki ko'chalarda ketma-ket yangi qurilgan inshootlar orasida daraxt ekilmagani kishi ta'bini xira qiladi. Yaxshi bila-



miz, keyingi yillarda ekologik vaziyat anchayin tarang ahvolga kelib qolgan. Buxoroda esa bu muammo yanayam ayanch-liroq. Bu yerning aholisi ekin ekish uchun tuproq sho'rini yuvishga majbur bo'layotgani, ba'zi hududlarida ekin qilish deyarli imkonsiz bo'lib qolgan haqida eshitganmiz.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, shahar hududida ko'proq daraxt ekilishi kerak. Ammo shaharning tozaligi tah-singa loyiq. Ko'chalarda chiqindi to'planganiga deyarli guvoh bo'lmaysiz.

Darvoqe, til masalasida ham buxoroliklar samarqandliklar-dan qolishmas ekan. Ko'chalardagi peshvalarning aksari-yati xorijiy tilda ekanligi gachetchi sifatida e'tiborimizni tortdi.

SITORAI MOHI XOSADAGI ACHINARLI AHVOL

Garchi turizm mavsumi hisoblansa-da, ammo Buxoroda-gi aksar tarixiy obidalarining kechasi ishlamasligi sayyohlar uchun noqulaylik tug'diradi. Mashhur Buxoro arkinining ichki qismini kechqurun ham aylanib chiqishni tashkillashtirish lozim. Har holda Samarqand Registonini sayyohlar kechki vaqtlarda ham tomosha qila oladilar. So'rab-surishtirganimiz-da bu yerda faqat yoz oylarida shunday imkoniyat yaratilishini aytishdi.



Kechki payt juda ko'p xorijlik va mahalliy sayyohlarning Labi Hovuz bo'yida aylanib yurganiga guvoh bo'ldik. Ehtimol, mashhur Arkda ham o'sha qadim davrdagidek muhitni yarat-ish kerakdir.

Ayniqsa, Sitorai Mohi Xosadagi ahvol bizni tashvishga soldi. Yaqin tarixni o'zida mujassam etgan mazkur majmuan-ing ichki qismlari yaxshi saqlanib qolgan bo'lsa-da, ammo tashqi ko'rinishi ta'mirlalab holatda qolgan. Ayniqsa, hovlin-g kirishdan chap tomondagi qismiga deyarli e'tibor qaratilmagan. Qolaversa, majmuaga kirishdagi yana bir tarixiy binoning ahvoli ham haminqadar. Savdogarlarning ombor-xonasiga aylangan o'xshaydi. To'g'ri, tarixiy obidalarini ta'mirlashning belgilangan me'yorlari, tartib-qoidalari bor. Lekin nega bu masalaga hanuzgacha e'tibor qaratilmayot-gani bizni ajablantirdi.

Xullas, Sitorai Mohi Xosa noyob eksponatlari, go'zal bezaklari bilan maftun etgan bo'lsa, yuqoridagi kabi qarovsiz jihatlari bilan ta'bimizni xira qildi.

...Baribir Buxorodan qaytish og'ir, yana bir necha kun qolsam, aziz avliyolar makon topgan go'shalardan kuch ol-sam, deysiz. Insonni yaratuvchanlikka, halol rizq topish, halol yashashga undagan, bu dunyo o'tkinchiligi har bir so'zida ifoda etib ketgan allomalar yurtdan yengili bo'lib ketasiz. Go'yoki poklanganday, ich ichingizdagi nafsdan g'olib kelgan-day his qilasiz o'zingizni.

Gulruh MO'MINOVA,
"Zarafshon" muxbiri.

1200 nafardan ziyod chaqiriluvchi muddatli harbiy xizmatga kuzatildi

Davlatimiz rahbarining joriy yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining muddatli harbiy xizmatga navbatdagi chaqiruvini hamda belgilan-gan xizmat muddatini o'tab bo'lgan muddatli harbiy xiz-matchilarni Qurolli Kuchlar rezerviga bo'shatish to'g'risi-da"gi qaroriga ko'ra, chaqirilish muddatini kechiktirish va chaqirilishdan ozod etilish huquqiga ega bo'lmagan chaqiruv yoshidagi fuqarolar 2023-yilning mart-aprel oylarida muddatli harbiy xizmatga chaqirilishi belgilan-gan edi.

Shu asosda viloyatimizda joriy yilning 9-martidan cha-qiriluvchilarning dastlabki guruhi muddatli harbiy xizmatga yo'l oldi.

- Joriy yil viloyat bo'yicha 2680 nafar chaqiriluvchi muddatli harbiy xizmatga yuboriladi, - deydi viloyat mudofaa ishlari boshqarmasi boshlig'i Burhon Quvva-tov. - Hozirgi kunga qadar harbiy xizmatga yaroqli deb topilgan 1233 nafar chaqiriluvchi tegishli Qurolli Kuchlar qo'shinlari tarkibiga kuzatildi. Aprel oyida yana 1447 nafar chaqiriluvchi muddatli harbiy xizmatga yo'l oladi.

Yangi "prava" pasport o'rnini bosadi

Eskisini almashtirib oling!

Ko'pchilik biladi, bugungi kunda hay-dovchilik guvohnomasi uning egasiga fuqarolik pasporti (o'rni bosuvchi hujjat) asosida 10 yilga beriladi. Shu bois, bugungi kunda eski haydovchilik gu-vohnomalari quyidagi muddatlarda yangisiga almashtir-ilishi lozim:

- 2010-yilgacha berilganlari — 2023-yil 31-martgacha;
- 2010-2012-yillarda berilganlari — 2023-yil 30-iyun-gacha;
- 2013-2015-yillarda berilganlari — 2023-yil 30-sentabrgacha;
- 2015-yildan keyin berilganlari — 2023-yil 31-dekabrgacha.

Qayd etish lozim, 2023-yil 31-mart kuni eski gu-vohnomalarni almashtirishning birinchi bosqichi yakunlana-di. Demak, 2010-yilgacha berilgan eski "prava"lar haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Ta'kidlash lozim, eski namunadagi "prava"ni yangisiga almashtirish uchun nafaqat DXMLarga yoki IIBB YHXBga murojaat qilish, balki uydan turib yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali buyurtma berish mumkin. Bunda yangisiga almashtirilgan haydovchilik guvohnomasi pochta orqali fuqaroning yashash uyiga yetkazib beriladi.

Zafar NASRIDINOV,
Samarqand tumanlararo
YHXB RO' va IOB boshlig'i.

REKLAMA, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

TANLOVDA QATNASHING!

Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali quyidagi kafedralar bo'yicha bo'sh lavozimlarga tanlov e'lon qiladi:

"KOMPYUTER INJINIRING" FAKULTETI BO'YICHA:

"Kompyuter tizimlari" kafedrasiga:

Katta o'qituvchi - 1 o'rin.

"Dasturiy injiniringi" kafedrasiga:

Katta o'qituvchi - 1 o'rin.

"Tabiiy fanlar" kafedrasiga:

Assistent - 1 o'rin.

"Gumanitar va ijtimoiy fanlar" kafedrasiga:

Katta o'qituvchi - 1 o'rin.

"TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VA KASB TA'LIMI" FAKULTETI BO'YICHA:

"Telekommunikatsiya injiniringi" kafedrasiga:

Katta o'qituvchi - 1 o'rin.

"Axborot xavfsizligi" kafedrasiga:

Dotsent - 1 o'rin.

"Axborot ta'lim texnologiyalari" kafedrasiga:

Katta o'qituvchi - 1 o'rin.

"Tillar" kafedrasiga:

Katta o'qituvchi - 1 o'rin.

Tanlovda qatnashish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- filial direktori nomiga ariza;

- xodimlar hisobi bo'yicha shaxsiy varaqa;

- oliy ma'lumoti va ilmiy darajasi haqidagi diplomlarning nusxalari;

- ilmiy unvoni haqidagi attestatning nusxasi;

- ilmiy va uslubiy ishlarining ro'yxati.

Manzil: Samarqand shahri Ibn Sino ko'chasi, 2-uy.

FILIAL MA'MURIYATI.

Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etish-larini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyeva notarial idorasida marhum Polyanakaya Emma Georgiyevnaga (2022-yil 23-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahimo-va Komila Faxriyeva notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ul-lanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'ra-qulovich notarial idorasida marhum Qarshiyev Quvandiq Unarovichga (2019-yil 9-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochil-gan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mu-hammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirova Mavluda Turan-boyevna notarial idorasida marhum Kadirova Elmira

Xamrokulovnaga (2013-yil 27-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Farhod ko'chasi, 34-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nishonova Umida Ismatillayeva notarial idorasida marhum Gafarov Karim Zakirovichga (2019-yil 14-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Nishonova Umida Ismatillayeva notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 132-uy, 2-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Umirzoqov Akramga (2017-yil 31-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

"SAMARQAND DILLER RIELTOR SERVICE"

mas'uliyati cheklangan jamiyati muzokaralar o'tkazish yo'li bilan tashkil etiladigan ommaviy ofyorat savdolariga taklif etadi.

Savdoga "CHORDARA-AGRO-TEXSERVIS" agrofirma mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sis-chilarining 2023-yil 2-martdagi 3-sonli umumiy yig'ilish bayoniga hamda murojaat xatiga asosan, jamiyatga tegishli Samarqand tumani Arabxona mahallasida joylashgan qurilish osti maydoni 4584,0 kv.metr, foydali (ichki) maydoni 921,0 kv.metr, foydalanshdagi umumiy yer maydoni 4584,0 kv.metr bo'lgan "Mashina-traktor parki" binolari qo'yilmoqda. Boshlang'ich bahosi - 55 000 000 (ellik besh million) so'm.

Muzokaralar o'tkazish yo'li bilan tashkil etiladigan ommaviy ofyorat savdolari ushbu mol-mulk matbuotda e'lon qilingan sanadan boshlab, ish kunlari (dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba va juma kunlari) o'tkaziladi. Savdolarida ishtirok etish uchun talabgorlardan aksept arizalari mazkur mulk sotilgunga qadar qabul qilinadi.

Aksept arizalari qabul qilish mulk sotilgandan yoki u savdolaridan olingandan keyin to'xtatiladi. Savdo o'tkaziladigan manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 91-"A" uy. Telefonlar: +99866-234-36-50, +99891-522-74-09.

Xizmatlar litsenziyalangan.

BEKOR QILINADI

Ishtixon tumanidagi Gapparova Senora Sher-muhammad qiz yakka tartibdagi tadbirkorining (JShSHIR: 40412906050014) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

TOPGANGA MUKOFOT!

Samarqand viloyati ichki ishlar boshqarmasidan Raximov Mamazarif Melikovich nomiga berilgan pensiya guvohnomasi Samarqand shahri hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: +99897-924-44-71.

Samarqand davlat universiteti biologiya fakulteti jamoasi o'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiya kafedrasida professori Sirojiddin O'roqovga otasi

Xudoyberdi ota O'ROQOVning vafoti munosabati bilan hamdardlik bildiradi.

Samarqand Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi jamoasi texnikum hamshirlik ishi kafedrasida mudiri Durdon Po'latovaga turmush o'rtog'i

Aziz SHOMURODOVning vafoti munosabati bilan ta'ziya izhor etadi.

↓ "Zarafshon" gazetasi 110 yilligi oldidan

"Hurriyat", "Lenin yo'li", "Zarafshon"...

Ijodkorlarning bir asrlig yo'ldoshi

"So'z - zabarjad, so'z - gavhar, oltin", degan edi O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidov. Darhaqiqat, so'z mo'jizasi - inson ongu qalbiga, ruhiyatiga ta'sir etish qudrati uning naqadar bebaho ne'mat ekanligini ko'rsatadi.

So'zning aloqa va muloqot vositasi sifatidagi beqiyos ahamiyati, ta'sirchanligi gazetachilikda yaqqol seziladi. Jurnalistning lug'at boyligi u yozgan asarlarning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Gazetalar - jamiyat ko'zgusi, ayni paytda voqelikni aniq dalillar asosida, tahliliy yondashuvlar bilan yorqin bo'yoqlarda aks ettiradigan ishonchli manba.

Shu bois insonlar so'nggi asrlarda dunyoni gazetalar orqali anglashga intilib kelmoqdalar. Shu bilan birga, o'z fikr-mulohazalarini, taklif va tashabbuslarini, jahonga, davlat hokimiyati organlariga, jamiyatga aytar so'zini ana shu mo'jizaviy vosita orqali bildirishga harakat qilishyapti.

Bu haqda o'ylaganda Samarqandda qariyb 110 yildan buyon chop etib kelinayotgan "Zarafshon" gazetasi xayolimga jonlanadi.

Jadid bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy tashabbusi, besh yil davomidagi kurashlari mevasi o'laroq, 1913-yildan chop etila boshlagan ushbu gazeta dastlab "Samarqand", so'ngira "Hurriyat", "Kambag'allar tovushi", "Lenin yo'li" degan nomlar bilan chop etilgan. Ularda Vatanimizning bir asrdan ortiq vaqt davomidagi solnomasi aks etgan.

Dastlab ushbu gazetaning ko'plab sonlarini jadid ma'rifatparvarlari nashr qilishgan. Shu bois ularning har bir varag'i tilloga teng, desam mubolag'aga yo'yamang. Chunki ushbu o'ziga xos vaqtlarda yurtdoshlarimizning qalb ko'zini ochadigan o'tli fikrlar, buyuk istiqloq orzusi, qaynoq hissiyotlar, maqsad va armonlar o'z aksini topgan. Maqolalar xalqni jipslikka chorlagani, istibdod kishanlari, nayranglaridan oqoh etgani, kishilarning dunyoqarashini kengaytirib, vatanparvarlik, yurtsevarlik, xalqparvarlik, ma'rifatparvarlik tuyg'ularini boyitgani uchun gazeta ijodkorlari mustamlakachi kuchlar tomonidan ne-ne qiyinchiliklarga g'iriftor etilgan. Turi soxta ayblovlar, tuhmat va bo'htonlar, ta'na-dashnomlar bilan o'lim changaliga sudrab borilgan.

Shu o'rinda, o'sha murakkab, qattol zamonlarda xalq ziyolilari nega o'limni bo'yniga olib, gazeta chiqarishgan, degan savol tug'ilishi tabiiy. Bu savolga lo'nda qilib javob berish mushkul. Biroq shu aniq, jadidlar o'ta vatanparvar bo'lishgan, el-yurt sha'ni, qadr-qimmatini, kelajagi uchun jonini tikishga doim tayyor turishgan. Ikkinchidan esa o'sha davr sharoitida o'z g'oyalari targ'ibotining eng samarali quroli matbuot ekanini to'la anglashgan. Uchinchidan, o'tayotgan har bir kun ekanini hisobga olib, o'sha davrda yuz berayotgan jarayonlarni, o'zgarishlarni, haqiqat va adolat kurashini qog'ozlarga muhrlab qo'yishni istashgan. Ulug'larimiz matbuotning beqiyos kuchidan, so'z qudratidan unumli foydalanishgan.

"Zarafshon" gazetasi ana shunday qiynoq va qaynoq tarixini boshdan kechirgan, desak xato emas.

Gazeta tahriyatida qanchadan-qancha ijodkorlar, xalqimizning atoqli shoir-yozuvchilari, jurnalistlari qalam tebratishgan. Mahmudxo'ja Behbudiydan so'ng Abdurauof Fitrat, Saidrizo Alizoda, Hoji Muin kabi jadid namoyandalari, keyinroq ulug' adib, davlat va jamoat arbobi Sharof Rashidovning ushbu gazetada muharrir bo'lganini eslashning o'zi "Zarafshon"ning o'tmishi naqadar shonli ekanligini oydinlashtiradi.



Bunday gazetada bosh muharrir bo'lishning o'ziga xos mas'uliyati bor. Har soni qo'lma-qo'l bo'lib, jamiyatda katta aks-sado beradigan, davlat e'tiboridagi nashrning o'z nomiyo shoniga mos o'qishli, uning sahifalaridan joy oladigan eng kichik xabardan tortib, keng hajmdagi tahlillar, sharhlarning saviyali bo'lishida bosh muharrirning dunyoqarashi, bilim va salohiyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Shu ma'noda, "Zarafshon" gazetasi atoqli shoir va yozuvchilar, taniqli davlat va jamoat arboblari rahbarlik qilgan ularning muvaffaqiyatini ta'minlagan omillardan edi. Albatta, gazetani o'qishli qilish bir insonning kuchi, salohiyati bilan amalga oshadigan ish emas. Bunda butun tahriyat jamoasining mehnat-kashligi, hamijhatligi, mas'uliyatligi muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, har bir xodim yuksak darajada iqtidorli, kasbini sevadigan, o'z ishini ustasi bo'lsa, ko'zlangan maqsadga osonroq yetish mumkin.

"Zarafshon"ning bosh muharrirlari o'z jamoasiga ana shunday iqtidorli, mohir ijodkorlarni to'play olgan. Ularni bir ezgu maqsad atrofida jipslashtirib, yuksak marralar sari olg'a boshlay bilgan. Bu mo'tabar dargohda Nuriddin Shukurov kabi taniqli olim, Ahmadjon Muxtorov singari zabardast jurnalist, Obloqul Usmonqulov, Sur'at Oripov, Asad Dilmurod, Anvar Jo'raboyev, Xolmuhammad Nurullayev, Habibullo Temirov, Mardi Nuriddin, Aziz Yo'ldoshev, Abduraim Ubaydullayev kabi iqtidorli ijodkorlar faoliyat ko'rsatib, nafaqat Samarqand, balki butun mamlakatimiz miqyosida obro'-e'tibor qozonishdi.

Bu adabiy muhit qanchadan-qancha jurnalistlarni charxlab, hayotga toblab, ulg'aytirdi. Ularning orasida Abdualvut Qutbidin, Akbar Nurmatov, Bahodir Qobulov, Adham Hayitov, Mannob Ibodullayev, G'olib Haslanov, Akram Haydarov singari o'nlab qalam ahli o'z ijod yo'liga ega bo'ldi, el-yurtga tanildi. Zabardast, o'z so'zi va o'rniga ega ijodkorlar an'analarni davom ettirayotgan ko'plab yosh muxbir, jurnalistlar ham ayni kunlarda media maydonida astoydil qalam tebratmoqda.

Bugungi kunda gazetaga taniqli jurnalist, shoir va yozuvchi, Oliy Majlis Senati a'zosi Farmon Toshev rahbarlik qilib kelmoqda. Jamiyat ko'zgusi bo'lgan ushbu nashr keyingi yillarda ham shaklan, ham mazmunan o'zgarib, Samarqand vohasining ovozi aylangan ayni haqiqat.

Hozirgi kunda Yangi O'zbekistonning yangi qiyofasini shakllantirishga qaratilgan islohotlar shiddatli tus olgan. Barcha sohada ochiqlik, oshkorlikni ta'minlashga asosiy mezon sifatida qaralayotgan, davlat hokimiyati organlari va idoralari faoliyatiga xalq bilan nechog'li

muloqot o'rnatgani, odamlarning muammolarini qay darajada hal etayotganiga qarab baho berilayotgan bugungi kunda ommaviy axborot vositalari, xususan, matbuotning hayotimizdagi o'rni va ahamiyati kun sayin oshib bormoqda.

"Zarafshon" gazetasi jamoasi ana shu mas'uliyatni teran anglab, faoliyat yuritmoqda.

Prezidentimizning "Jamiyatimizda demokratik qadriyatlarini qaror toptirish, fuqarolarimizning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash, dunyoda va mamlakatimizda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, voqea-hodisalar haqida tezkor va haqqoniy ma'lumotlar yetkazish borasida siz, matbuot ahlining fidokorona mehnat qilayotganingizni xalqimiz yaxshi biladi va yuksak qadrlaydi", degan so'zlari mamlakatimizdagi barcha ommaviy axborot vositalari xodimlari qatori "Zarafshon" va "Самаркандский вестник" gazetalarini ijodkorlariga ham o'ziga kuch, baland ruh baxsh etib kelmoqda.

Taassufki, ba'zan turli davralarda internet imkoniyatlari, ijtimoiy tarmoqlarning ommalashgani inobatga olinib, "Bugun matbuotning davri o'tdi", degan tuturuqsiz gap quloqqa chalinadi. Bu luqmani, aniqki, yo o'ynab gapirganlar, yo o'ylamay gapirganlar aytadi. Zero, bugungi zamonaviy texnologiyalar gazeta-jurnallarning, kitobning o'rni bosa olmasligi dunyoning taraqqiy topgan davlatlarida allaqachon o'z isbotini topgan.

Bugun rivojlanishning yuqori darajasiga erishgan mamlakatlarda matbuotni har kuni kuzatib borish insonlar turmush tarzining ajralmas bo'lagidir.

Gazeta - bu tarix. Gazeta - bu o'zgarimas hujjat. Yillar, asrlar o'tib, o'tmishga nazar solinsa, aynan gazetalar sahifalarida o'sha davr ruhini, voqealar tarzi va shiddatini ko'ramiz. Tarix qayta jonlangandek bo'ladi. Shu ma'noda "Zarafshon" va "Самаркандский вестник" gazetalarining bir asrdan ziyod vaqt davomida nashr etib kelinayotganining ahamiyati ulkan.

Mazkur nashrlarning bugungi media makonida ham o'z ovozi, o'z o'rni bor. Yurtimizdagi yangilanishlar nasimini xalqqa yetkazishga, millatlararo totuvlik, bag'rikenglik, do'stlik, hamijhatlik g'oyalarni keng targ'ib etishga munosib hissa qo'shyapti. Ularning sahifalarida ro'yi zamin sayqali - Samarqandning o'ziga xos hayot tarzi, davr ruhi, davlat ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy siyosatining odamlar turmushini o'zgartirayotgani, gazet-xonlarning orzu-o'ylari, maqsad va umidlari, ishonchli soddas, samimiy ifodalarda bo'y ko'rsatib turibdi.

Turi janrlardagi dolzarb, biri-biridan qiziq mavzulardagi materiallarni o'qigan insonlar o'zi yashayotgan joy, bu yerdagi muhit, odamlarning kayfiyati, kechayotgan o'zgarishlar, yangilanishlar haqida muntazam xabarador bo'lib bormoqda. Islohotlar jarayonida o'zlarining fikrlari, g'oya va tashabbuslari bilan ishtirok etayotir.

Muxtasar aytganda, mazkur nashrlarning mamlakatimizda ma'naviy muhit barqarorligini, sog'lomligini, ochiqlik va oshkorlikni, ijtimoiy munosabatlarni shaffofligini ta'minlashda hissasini beqiyos.

Bugun ushbu gazetalarda ishlayotgan - u xoh jurnalist, suratchi, xoh oddiy texnik mutaxassis bo'lsin - har bir xodim oldida salmoqli tarixga ega bo'lgan nashrlarning asl mavqeini saqlash, jamiyatimizdagi o'rni mustahkamlashdek zalvorli vazifalar turibdi. Ushbu muqaddas vazifa har bir ishchini o'z ustida muntazam ishlagan, bilim va salohiyatini muttasil yuksaltirib borishga, muhimi, buyuk jid bobilarimizga munosiblik mas'uliyatini har soniya his qilib yashashga undaydi.

110 yillik yubiley sanasini nishonlash arafasidagi "Zarafshon" va 105 yoshga "to'layotgan" "Самаркандский вестник" gazetalarini tahriyat ijodiy jamoasiga ana shunday sharafli va mas'uliyatli ishlarda yanada g'ayrat-shijoat ko'rsatishni, izlanish va intilishdan hech qachon tolmasliklarini tilaymiz.

Ushbu nashrlarning kelgusida ham mamlakatimiz ma'naviy-ma'rifiy hayotida o'z o'rniga ega bo'lishiga, yurtimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligini ta'minlashga baholi qudrat hissa qo'shishiga ishonamiz.

O'tkir RAHMATOV,
"Xalq so'zi" va "Народное слово"
gazetalari bosh muharriri.

↓ Yetmishinchi bahor mazmuni

Biz o'tayotgan umrimizni goh yo'lga, goh bepoyon dalalarga, goh daryolarga o'xshatamiz. Uning kimgadir yugurik va aksincha, kimgadir ohista qadam bosgandek tuyulishi tabiiy. Yozuvchi O'tkir Hoshimov "ikki eshik orasi" iborasini ishlatganda tug'ilganimizdan to so'nggi nafasimizgacha bo'lgan muddatda o'tgan hayotimizda xayolimizga keladigan ana shu xulosalarni ham nazarda tutgan. Lekin 70 yoshga to'lib, bir narsaga amin bo'ldimki, ikki eshik o'rtasi biz bilgan va bil-magan sinovlardan iborat ekan. Ayniqsa, shu yoshda hayot yo'lingga bir qarab olsang, bunday mulohazalar shuuringda yanada teranroq, yorqinroq ko'zga tashlanadi.

UMRNING HAR ONI SINOVDIR



Taqdirning sinovi deganda biz albatta yo'limizda uchraydigan mushkulotlar, qiyinchiliklar yoki dard-u iztiroblarni tushunamiz. Vaholanki, sinov har lahzada oldimizdan chiqib turibdi. Misol uchun, maktabda yaxshi o'qish ham, kasbni to'g'ri tanlash ham, hatto yaxshi qo'shniga ega bo'lish ham sinov. Negaki, siz ayni maqsadga erishish uchun mashaqqat chekasiz, o'ylaysiz, xulosa qilasiz.

Binobarin, ma'rifatli oilada yashash ham Yaratganning sinovidan yaxshi o'tganlarga nasib etadi. Jumladan, kamina garchi, xo'jalikda kichik vazifalarda ishlagan bo'lsa-da, ma'rifatli Sharifboy akaning farzandi bo'lishdek baxtga erishganman. O'n ikki nafar farzandni dunyoga keltirib, kamolga yetkazgan Mukarram Bobomurodovning o'g'liman. Aynan ana shu tabarruk insonlar meni ham o'n bir farzandidan kam ko'rmasdan, mehri baxshida etgan. Bilimga ishtiyog uy'otgan. Shu bois o'rta maktabni oltin medalga bitirdim. 1970-yilda ToshDU (hozirgi O'zMU) jurnalistika fakultetiga hamqishloq do'stim Abdusami Samadov bilan bir "hamla"da o'qishga kirganmiz.

Talabalik garchi ko'p qatori kechgan bo'lsa-da, uning zach-yot, imtihon, davlat imtihonidan tashqari ham sinovlari bisyor edi. Besh yil ichida nafaqat auditoriyada, balki qurilish ob'yektlari, paxta dalalarida xarakterimiz shakllandi, aniqrog'i namoyon bo'ldi. Bunday saboqlardan o'tish uchun bilimning o'zi yetarli emas ekan. Ko'pchilik bilan muomala qilishni o'rganish, kerakli gapni kerakli joyda aytib bilish, mehri, saxovatli bo'lish faqat hayot sinovidan o'tganlargagina nasib etdi. Ko'zga tashlanmaydigan bu sinovlar pirovardida ayrim tengdoshlarimizning peshonasini yaraqlatgan bo'lsa, ayrimlarining hayotini izdan chiqardi.

Shukr, o'qishni bitirib, to'g'ri qishlog'imga keldim. Eh-he, jurnalist, degan diplomni olgandan keyin xayollaring qanot bo'lib dolar ekan. Ko'pchilik Toshkentdagi manaman degan nashrlarni ko'zlashdi. Kamina esa otam bilan maslahatlashib, to'g'ri "Urgut sadosi" gazetasi tahriyatiga bordim. Ehtimol, umrimning bugungi taskinlari, ota-onamning bizlardan minnatdor ketganliklari ana shu sinov chog'ida qabul qilgan to'g'ri qarorim mevasidir. Qolaversa, 45 yil ana shu gazetada ishladim

va nafaqaga chiqdim. Binobarin, bunday sinovlardan muvaffaqiyatli o'tishimda fakultetimizning o'sha paytdagi dekani, professor To'g'on Ernazarov, tuman gazetasi muharriri Aktam To'raqulov kabi insonlarning ham hisssasi bor. Aktam aka o'shanda menga "Uka, bizning ishimiz shoshaloqlikni yoqirtmaydi, har bir voqeaqa sinchkovlik bilan qarash, salmoqli xulosa chiqarish kerak. Aytganday, taniqli shoirimiz Barot Boyqobilov, yozuvchilari-miz Asad Dilmurodov, Mamatqul Hazratqulov, Abdusaid Ko'chimov ham ana shu maktabni o'tashgan", degan o'g'iti bilan meni oldindagi ko'p sinovlarga tayyorlagan ekan. Shuning uchun Malla Madaminov, Fayzi Haydarov, Rahmon Jo'rayev, Murodilla Yangiboyev, Murtazo Mustafoev, Iskandar Boymurodov va Mohira Jumayeva kabi safdoshlarim bilan uzoq yillar davomida baqamti, chinakam raqobatda, muhimi, g'ayratu shijoatda faoliyat ko'rsatdik. Kimdir bitta maqolasi bilan tanilib ketdi, kimdir birovlarining maqolalarini yozib berib yashadi, kimdir chiroyli tahrir qilishdan kun ko'rdi - ularning barchasi quvvai hofizasiga qarab sinovlardan o'tdi.

Esimda, 12 kilometr masofadan tahriyatga qatnar edim. Avtobusdan kechiksam, piyoda borishga to'g'ri kelardi. Lekin nolimadim, ichxamgina hovlimizda tirikchilikka yarasha u-bu yetishtirdik, farzandlar ko'rib, ularni kamolga yetkazdim. Ming afsuski, turmush o'tog'imning umri qisqa ekan, 64 yoshida bizni tark etdi. Bu sinovlarda ham farzandlarim, nevaralarim oldida turib berdim. Dardimni ichimga yutib, ularning yaxshi kunlarini istadim.

Hayotning sinovlari ko'p. Maktabda, umuman, o'qishda yoki tanlovlarida sinov g'oliblari darhol ma'lum qilinadi. Lekin hayot sinovlari o'z xulosasini keyinroq aytadi, pirovardida umringizni yo nurga to'ldiradi, yo armonlargaga yetaklaydi. Behad shukrlar bo'lsinki, kamina bugun 70 yoshimda hayot sinovlaridan imkon darajasida munosib o'tganligimni sezib turibman. Negaki, kasbimni egallagan o'g'lim, farzandlarim yonimda, nevaralar qurshovida-man, qalbgaga yaqin hamkasblarim ardog'idaman. Bugungi zamonada insonga mana bunday taskinning o'zi yetarli deb o'ylayman. Bunday baxt barchamizga nasib etsin.

Matlab HASANOV,
O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi.

Nasiba Tursunova "Lenin yo'li" (hozirgi "Zarafshon") gazetasi fidoyi va talabchan harf teruvchisi sifatida nom qozongan. Chunki Nasiba opa 1962-yildan 1992-yilgacha tahriyatda harf teruvchi sifatida faoliyat yuritdi. 30 yil davomida ko'plab shogirdlarga ustozlik qilgan onaxon bugun ham vaqt topildi, deguncha tahriyatga oshiqadi, "Nafaqadaman, keksayib qoldim", demay yoshlarga o'z tajribalarini o'rtoqlashadi. 1980-yillar boshida olingan ushbu suratda Nasiba opa gazetaning maxsus muxbiri O'ktam Niyozov bilan gazetaning navbatdagi soni uchun maaola teravotaan davti aks ettirilaan.



BIR QAYNOVI ICHIDA
"Qo'chqorov bosh cho'pon bo'lganidan buyon qo'zilish mavsumiga baraka kirdi".
(Fermar xo'jaligi raisining ma'ruzasidan).
"Har"da dum bor, "xar"da dum yo'q".
(Telemuloqotdan)
"Har bir molning talabiga qarab oziqlantiryapmiz".
(Molboqarning tekshiruvchiga aytgani)
"Chayqovchi" degan so'z muomaladan chiqib ketdi. Endi bu termin faqat kema va poroxodlarda qoldi xolos".
(Bilag'on kishining davradoshlari orasidagi gap)
"Mashinaga qachon dam bergansiz?"
(Ustanning haydovchiga savoli)
"Yozilib o'tiringlar"
(Guruh rahbarining gap)
O'rinboy NORMATOV.

MATBUOT UYI
Zarafshon
С АМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi
Bosh muharrir: Farmon TOSHEV
Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 17 638 nusxada chop etildi. Buyurtma 161. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2
Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.
QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56
BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61
MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahriyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.
«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.
Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:
A.SHERXOLOV.
Navbatchi:
G.MO'MINOVA.
Sahifalovchi:
B.ABDULLAYEV.

ISSN-201667X
9 1772010667009
Sotuvda narxi kelishilgan holda